

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABAGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNING DOLZARBLIGI

Madaminov Furqatjon Shuhratjonovich
NAMDU Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi kafedrası o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimining samarali imkoniyatlari, ta'limni talabaga yo'naltirishning dolzarbligi, individual yo'naltirilgan o'quv jarayonining muxim hususiyatlari va afzaliklari to'g'risida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: modul, kredit, reyting-ball, individual, komponent, elektiv, hamkorlik, shaxs, ta'lim, traektoriya, tendensiya, konsepsiya mustaqil ish,

СТОМОСТЬ ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Мадамино́в Фу́ркатжон Шу́хратжо́нович
Преподаватель кафедры изобразительного
искусства и инженерной графики НАМДУ

Аннотация

В данной статье представлена информация об эффективных возможностях кредитно-модульной системы в системе высшего образования, актуальности студенто-ориентированного обучения, важных особенностях и преимуществах лично-ориентированного образовательного процесса.

Ключевые слова: модуль, кредит, рейтинг-балл, индивидуальный, компонент, факультативный, партнерство, лицо, образование, траектория, направления, концепция, самостоятельная работа.

COST OF STUDENT-DIRECTED EDUCATION IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Madaminov Furqatjon son of Shuhratjon
Teacher of the Department of graphic
design of Fine Arts buds NAMDU

ANNOTATION

This article provides information about the effective possibilities of the credit-module system in the higher education system the relevance of student-oriented education, the important features and advantages of the individually oriented educational process.

Keywords: module, credit, rating-point, individual, component, elective, partnership, person, education, trajectory, trend, concept, independent work.

Globalashuv sharoitida ta'lim shaxsni xar tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muxim o'rin tutadi. Bugungi tezkor davr talabalarni xam qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart- sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda.

Bugungi kunda bilim olishning ahamiyati shunchalik oshdiki, u jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ishlay boshladi. Ayniqsa Oliy ta'limda raqobatdosh kadrlarni tayyorlash talabalarning maksimal mustaqilligini qo'llab- quvvatlash, egallangan bilimlarni amaliyotda samarali qo'llay olish layoqatini rivojlantirishni taqazo etadi. Bu esa Oliy ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga javob beradigan pedagogik tizim asosida tashkil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ana shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimida bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tish ustuvor vazifa etib belgilandi.[1]

Bugun zamonaviy ta'limning takomillashgan tizimi deya ta'riflanayotgan o'qitishning mudullik-kredit ko'rinishi o'zlashtirishni nazorat qiluvchi turdan o'zini o'zi nazorat qiluvchi-rag'batlantiruvchi turga o'tishni anglatadi.

O'qitishning kredit-modul tizimi – modulli o'qitish texnologiyalari va ECTS (ingl. European Credit Transfer and Accumulation System -tizimi kursdan-kursga o'tish va ball to'plashning Evropa tizimi) sinov kreditlari birligida amalga oshiriladigan o'quv jarayonini tashkil etish modeli;

“Kredit” tushunchasi o'zida kasbiy tayyorgarlik mazmunida o'quv fanlari ulushini hisobga olish imkonini beruvchi miqdoriy tavsifni o'zida ifoda etadi. Kredit u yoki bu kursni yoki yahlitlikda ma'lum bir ta'lim dasturini o'zlashtirish uchun zarur o'quv yuklamasi va unga ajratilgan vaqtni aniqlash uchun zarur.[2]

Oliy ta'limga nisbatan qo'llanilganda “modul” deganda o'quv fanlari bo'yicha ta'lim dasturlarini mustaqil, mantiqiy tugallangan qismi nazarda tutiladi.

Modul fanning ma'lum tugallangan qismi yoki yaxlitlikda fanning o'zi; modul o'zida bir qancha kurslarni qamrab olishi mumkin. Modul tarkibiga kiruvchi informatsiya didaktik maqsadga erishish uchun aniq tuzilish va yaxlitlikka ega keng ko'lamdagi murakkablikni aks ettiradi. Modul tuzilmasida majburiy tayanch komponent va variativ qism mavjud bo'ladi. Modul ma'lum bir fan sohasi haqidagi yahlit tasavvurlarni hosil qiladi va mazkur modulni o'zlashtirish yakunida talaba o'zida nam aniq kompetensiyalarni belgilash imkonini beradi.[3]

Oliy ta'limda kredit tizimini qo'llash yahlit ko'rinishda o'quv jarayonini samarali amalga oshirishning quyidagi imkoniyatlarini yuzaga keltiradi:

- Talabalarga individual o'quv rejalarini tuzish, fanlarni o'zlashtirish ketma-ketligini erkin aniqlashtirish, semester bo'yicha shaxsiy o'quv mashg'ulotlari jadvalini mustaqil tuzish imkonini taqdim etuvchi o'quv jarayonini individual yo'naltirilgan tarzda tashkil etish;
- Talabalarning o'quv faoliyatlari natijalarini baholashning rag'batga asoslangan ball-reyting tizimi;
- Ta'lim mazmunini belgilashga doir standart, o'quv reja va dasturlarni muntazam takomillashtirib boorish;

-Professor-o'qituvchilarga akademik erkinlik shu jumladan o'qitish metodikasini erkin tanlash huquqini taqdim etish;

-Ta'lim olish va professor-o'qituvchilarga ish haqi to'lash hajmini maqbullashtirish;

-Universitet tuzilmasidagi bo'limlarning byudjet foydasi va harajatlari optimalligini ta'minlash;[4]

O'qitishning kredit-modul tizimining me'yoriy -metodik ta'minotining komponenti – bu o'quv rejasidir. O'quv rejasining barcha turlarida harfli va raqamli ifodaga ega simvollarda aks etadigan barcha fanlarni kodlashning yagona tizimidan foydalaniladi. Har bir talaba mustaqil yoki maslahatchi (tyutor) yordamida na'munaviy reja asosida o'zining yillik individual rejasini tuzadi. Unga information paket tayanch o'quv rejasini(elektiv fanlar katalogi bilan birga), o'quv dasturlari, o'quv mashg'ulotlari turlari, maslahatlar grafigi bilan tanishish imkoniyati beriladi.

Demak, kredit-modul tizimida talabalarning bilimini tekshirish reyting-ball tizimida amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Oraliq attestatsiya (nazorat ishlari, bo'limlar bo'yicha testlar, kurs ishlari himoyasi va boshqalar);

2. Yakuniy attestatsiya (fan bo'yicha yakuniy testlar, imtixon, yakuniy attestatsiya).

O'quv semestri yakuni bo'yicha talabalar tamonidan oraliq nazorat va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish natijasida olingan ballar yakuniy attestatsiya (sinov yoki imtixon) natijalari bilan birga qo'shib hisoblanadi hamda modul bo'yicha reyting bahosini shakillantirish uchun umumlashgan ballar miqdori sifatida hizmat qiladi. O'quv rejasidagi har bir fan bo'yicha o'zlashtirish samaradorligi 100 ball bilan baholanadi. Kreditlar to'plashning Evropacha tizimiga (European Credit Transfer System) ko'ra ikki bosqichni o'z ichiga oladi.

O'zlashtirish va talabalik maqomi quyidagi ko'rsatkichlar asosida belgilanadi:

1. Bir semestr davomida talabalar individual rejasida belgilangan fanlar, shu jumladan (a) guruh fanlarini ham qo'shganda 25 kredit to'plashi zarur;

2. Agar talaba semestr davomida 20 dan kam kredit to'plasa, shuningdek (a) guruhidagi fanlarni 100 % o'zlashtirsa, u holda u keyingi semestrda o'qish imkoniyatini avtomatik ravishda qo'lga kiritadi;

3. Agar talaba 20 dan kam kredit to'plasa, u avtomatik talabalar safidan chiqariladi;

4. O'z xohishi (dekanat ruhsati bilan) talaba (a) guruh fanlardan zarur kreditni to'play olsa avvalgi kursda qayta o'qishni tiklashi mumkin. [5]

Modulli ta'lim tizimi talabalarning o'zlari, shaxsiy ehtiyojlari va intilishlariga to'liq javob beradigan individual ta'lim traektoriyalarini tanlashlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berdi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar yondashuvlarga muvofiq talabalarning individual ta'limga yo'naltirish muammosini rivojlantirishga muhim hissa qo'shilgan. Vaysman, V.V. Davydova, I.A. Zimnaya, I.S. Kon, V.D. Shadrikov, I.O. Yakimanskaya, A.B. Xutorskiy, Y.A. Komenskiy, Dj. Lokk, I.G. Pestalotsi, A. Disterveg, K.D.Ushinskiy, XX-asrning 60-70-yillarida esa A.A.Budarniy, V.I.Gladkih, A.A.Kirsanov va boshqalar, maktab o'quvchilarining individual ta'lim traektoriyalari,[6] Dorfman. I. Ya. Lerner va C.B. Vorobieva va boshqalar.Ta'limning individual traektoriyasi ta'limda har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning shaxsiy usuli deb hisoblaganlar. [7]Birinchi marta "shaxsga yo'naltirilgan

yondashuv” atamasi K.Rojers tomonidan qo’llanila boshlandi. Rojers, shuningdek, o’rnatilgan an’anaga ko’ra, ta’limda shaxsiy rivojlanishga emas, balki faqat intellektual rivojlanishga e’tibor qaratilganligini ta’kidladi. [8]

O’zining "Talabalarga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi" kitobida I.S. Yakimanskaya mavjud ta'lim tizimini o'zgartirish uchun o'zining LOO kontseptsiyasini taklif qiladi. Talabaning sub'ektiv tajribasidan ta'lim maqsadlarida foydalanish muhimligiga e'tibor qaratadi. Subyektiv tajriba - talabaning o'z hayoti tajribasi, uning bilimi va o'zini o'zi bilish tajribasi, ijtimoiylashuvi, o'zini o'zi rivojlantirishi, o'zini o'zi anglashiga yordam beradi deb yozadi. [9]

Individual ta'lim tendensiyasi me'yoriy hujjatda aks ettirilgan bo'lib, unga ko'ra talaba komponenti uchun individual soatlar ajratilishi nazarda tutilgan. “Talaba komponenti” faqat talaba bilan individual ishlash bilan cheklanmaydi. Ammo bu atama nafaqat olimlarning, balki ta'lim tashkilotlari ma'muriyati va o'qituvchilarining tushunchasini talabaning o'z ta'limidagi rolini tan olishga imkon beradi.

Har bir talabaga barcha o'quv fanlarni rivojlantirish uchun o'z ta'lim traektoriyasini yaratish imkoniyati beriladi. O'qitishning vazifasi o'quvchining ijodiy rivojlanishining individual zonasini ta'minlashdan iborat bo'lib, u har bir bosqichda o'zining individual fazilatlarini va qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. [10]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki kredit-modul tizimining talaba shahsini rivojlantirishga yo'naltirilganligi nafaqat intellektual rivojlanishga balki, o'quv jarayonini takomillashuviga olib keladi. Talabalarning mustaqil ishlarining rolini kuchaytirilad, talabalar uchun individual o'quv dasturlarini loyihalashtirish, ularga ta'lim mazmuni qismini va uni rivojlantirish ketma-ketligini mustaqil tanlash imkoniyati beriladi..

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish to’g’risidagi 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623- sonli qarori.
2. Robert Waggenar A.history of ECTS,1989-2019. Developing a World standart for Credit Transfer and Accumulation in Higher Education International Tuning Academy.2020.
3. Boltaeva. M. Kredit-modul ta’lim tizimida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatining dolzarbligi. 22.10.2022 yil
4. O’rinov V. Umarov A. <https://kun.uz/news/2020/07/22/oliy-talimda-kredit-modul-kelayotgan-oquv-yilida-talabalarni-nima-kutmoqda>.
5. Sobitxo’jayeva M.S. Kredit modul tizimida talabalarning individual ta’lim traektoriyasini shakillantirishning dolzarbligi. 01.2022 yil.
6. Alekseev N.A. Maktabda o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim - Rostov n / D: Feniks, 2006. -332 p.
7. Lukyanova M.I. Shaxsga yo'naltirilgan darsni tashkil etishning nazariy va uslubiy asoslari // Bosh o'qituvchi. No 2. 2006.yil
8. Bondarevskaya E.V. Talabalarga yo'naltirilgan ta'lim: paradigmani ishlab chiqish tajribasi. - Rostov - Don, 1997 yil
9. Yakimanskaya I.S. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi. - M: "Sentyabr’
10. TA'LIMNINGINDIVIDUALTA Zamonaviy fanni talab qiluvchi texnologiyalar 9. URL: <http://top-technologies.ru/ru/article/view?id=36374> (kirish sanasi: 21.04.2019).